

MAHMUD QOSHG‘ARIY VA UNING “DEVONU LUG‘ATIT TURK” ASARI QO‘LLANILGAN LUG‘ATLAR

Hayitmurodova Gulruh Xayrullo qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika insituti

filologiya va tillarni o‘qitish

o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Amirqulov Sanjar – Ilmiy rahbar

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola qadimiy turkiy lug‘atlardan yig‘gan joy nomlari va ularning hozirgi kundagi muqobil nomlanishi, ularning kelib chiqishi haqida umumiy ma‘lumot va xulosalar bayon etilgan

***Kalit so‘zlar.** Orta Osiyo, Turkiy, lug‘atshunos, Markaziy Osiyo, uy ro‘zg‘or buyumlar, atama, an‘ana,*

Ushbu asar ilk filologik tadqiqot va turkiy so‘zlar etimologiyasi keltirilgan birinchi qiyosiy lug‘atdir. Ayni paytda bu asarni faqat lug‘at deb hisoblash noto‘g‘ri, unda Markaziy Osiyo xalqlarining xalq og‘zaki ijodi namunalariga xos ko‘plab noyob ma‘lumotlarni kuzatamiz.

Mahmud Koshg‘ariy asarning kirish so‘zida shunday yozadi: “Men Falak turkiylar zaminida davlat yaratganini ko‘rdim. Falak bu xalqlarni “turkiy” deya atadi va ularni davlat boshqaruviga qo‘ydi. Hukmdorlar turkiylar bo‘lib, hokimiyat ularning qo‘lida edi, ular odamlarni boshqardi. Odamlar o‘z hukmdorlarining adolatli ishlarini qo‘llab-quvvatlardi, ular bilan yonma-yon kurashar edi va turkiylar yomon ishlardan saqlanishga qodir edi. Turkiylar qo‘llab-quvvatlashlari uchun ularning tilida so‘zlamoq kerak”. Turkiy tillarda yaratilgan lug‘atlar anchayin mukammal tuzilgan.

Qizig‘i shundaki, “ota-ona”, “aka-uka”, “opa-singil”, “tog‘a-jiyan” kabi eski turkiy so‘zlar shu yoki shunga yaqin ko‘rinishlarda birgina biz o‘zbeklarda emas, turkiy bo‘lmagan el-uluslarda ham bir necha yuz yillardan beri qo‘llanib kelinadi. Qo‘shni tojikcha va Pokistonning urdu tili buning yorqin o‘rnagidir. Bundan besh yuz yil burun Boburiylar tomonidan Hind o‘lkasiga turkiy qo‘shinlar bilan birga olib borilgan bu so‘zlar bugungacha o‘sha yurtlarda saqlanib qolishi o‘z-o‘zidan bo‘lmagan. Yuz yillar bo‘yi ona yurtdan uzoqda, bir-biriga yot ko‘plab tillarda so‘zlashuvchi bir o‘rtam – muhitda qolgan eldoshlarimizning o‘z urug‘-urpog‘iga meros qoldirgan so‘zlaridir bu!

Yuqorida urg‘u berilganidek, turkiy tillar orasida o‘zbek tili o‘zga tillardan ko‘plab so‘z o‘zlashtirgan tildir. Biroq bu degani tilimiz o‘zligini, ona so‘zlarini yo‘qotdi degani emas. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, ayrim turkiy tillarda o‘zligini yo‘qotib, biror yozma asar tugul, biror bir ertak yozishga yoki o‘z urpoqlariga qo‘shiq, yo bo‘lmasa, cho‘pchak aytib berishga yaramay qolgan tillar ham uchraydi. Nima bo‘lsa-da, o‘zbek tilida boshqa tillardan o‘tgan deyarli har bir so‘z va atamaning ikki-uchtalab tengi – muqobili borligi kishini quvontiradi. Buni O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarida uchraydigan 1,5 mingta so‘zdan 80–90% i, “Devonu lug‘atit-t-turk” (Turkiy so‘zlar devoni) dagi so‘zlarning esa undan ham ko‘proq ulushi unchalik o‘zgarishga uchramasdan saqlanib kelayotgani ko‘rsatib turibdi. Quyida “Devon”dan o‘rnaklar keltirib o‘tam Qizig‘i shundaki, “ota-ona”, “aka-uka”, “opa-singil”, “tog‘a-jiyan” kabi eski turkiy so‘zlar shu yoki shunga yaqin ko‘rinishlarda birgina biz o‘zbeklarda emas, turkiy bo‘lmagan el-uluslarda ham bir necha yuz yillardan beri qo‘llanib kelinadi. Qo‘shni tojikcha va Pokistonning urdu tili buning yorqin o‘rnagidir. Bundan besh yuz yil burun Boburiylar tomonidan Hind o‘lkasiga turkiy qo‘shinlar bilan birga olib borilgan bu so‘zlar bugungacha o‘sha yurtlarda saqlanib qolishi o‘z-o‘zidan bo‘lmagan. Yuz yillar bo‘yi ona yurtdan uzoqda, bir-biriga yot ko‘plab tillarda so‘zlashuvchi bir o‘rtam – muhitda qolgan eldoshlarimizning o‘z urug‘-urpog‘iga meros qoldirgan so‘zlaridir bu!

Yuqorida urg‘u berilganidek, turkiy tillar orasida o‘zbek tili o‘zga tillardan ko‘plab so‘z o‘zlashtirgan tildir. Biroq bu degani tilimiz o‘zligini, ona so‘zlarini yo‘qotdi degani emas. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, ayrim turkiy tillarda o‘zligini yo‘qotib, biror yozma asar tugul, biror bir ertak yozishga yoki o‘z urpoqlariga qo‘shiq, yo bo‘lmasa, cho‘pchak aytib berishga yaramay qolgan tillar ham uchraydi. Nima bo‘lsa-da, o‘zbek tilida boshqa tillardan o‘tgan deyarli har bir so‘z va atamaning ikki-uchtalab tengi – muqobili borligi kishini quvontiradi. Buni O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarida uchraydigan 1,5 mingta so‘zdan 80–90% i, “Devonu lug‘atit-turk” (Turkiy so‘zlar devoni) dagi so‘zlarning esa undan ham ko‘proq ulushi unchalik o‘zgarishga uchramasdan saqlanib kelayotgani ko‘rsatib turibdi. Quyida “Devon”dan o‘rnaklar keltirib o‘tamiz.

Ammo lug‘atshunoslar o‘ziga xos lug‘at, lug‘at tuzish usullari, tamoyillari, so‘zlarni sharhlash kabi uslublari jihati bilan ajratib turar ekan, ushbu lug‘atlarda tanlash mezonlari, so‘zning semantik tarkibiga munosabati so‘zlarning ma’no qirralarini ochish kabi masalalari hozirgi zamon tilshunos olimlari uchun ham nazariy ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” (Turkiy so‘zlar lug‘ati) ya’ni turkiy tilda qo‘llanuvchi so‘zlarning qomusiy lug‘atida uy-ro‘zg‘or buyumlari nomi atroflicha tahlil qilindi. “Devonu lug‘otit turk” da uy-ro‘zg‘or buyumlari turlicha nomlar bilan atalgan. Ayrim o‘rinlarda va ba’zi so‘zlarda bir uy-ro‘zg‘or buyumining ikki xil yoki uch xil nom bilan atalishiga duch keldik. Masalan qaychi so‘zining o‘zi uch nom bilan yuritilgan ya’ni, кифты(392-bet), сінду(394-bet) бiсгуч(421-bet). Bu nomlar kitobning boblari bo‘yicha qiyoslandi. Dasturxon buyumi ham ikki xil nom bilan atalgan:тэшчи (394-bet) va терги (403-bet). Piyola so‘zi bir o‘rinda ідиш(92-bet) yana bir o‘rinda ајак (112-bet) nomlari bilan atalgan. Ayollar uchun faol uy ro‘zg‘or buyumi елак ескý(119-bet) hamda андiг terminlari bilan nomlangan. Sandiq termini

I va III tomlarida uch xil atama bilan nomlangan:ýкак (I tom 107-bet), кабірчак (I tom 460-bet), јўдрýк (III tom 52-bet). Keyingi tahlilda turkiy lug‘atlarning yana biri “At tuhfat-uz zakiyati fil lug‘otit turkiya” hamda “Devonu lug‘otit turk” da

bir xil yoki turli xilnom bilan nomlangan uy-ro'zg'or buyumlari bir-biriga qiyoslandi. Beshik "At tuhfat uz-zakiyati fil lug'otit turkiya" da бáрик(31-bet) va "Devon" da бешик (384-bet) nomlari bilan yuritilgan. Katta igma, juvaldiz esa "At tuhfat" da таман (26-bet) va "Devonu lug'otit turk" da теман(381-bet) terminlari bilan atalgan. Ovqat uchun ishlatiladigan un esa "At tuhfat" da ун (54-bet), "Devonu lug'otit turk" da ham ун (83-bet) bir xil nomlar bilan atalgan. Baliq tutish uchun kerak bo'ladigan qarmoq "At tuhfat" da Кармак (68-bet), "Devon" da aprar deb nomlangan. Suv yoki suyuq ovqatlar uchun idish har ikkala kitobda ham bir xil ajak nomlari bilan atalgan. Yuqorida aytib o'tilganidek qiyosiy tahlil jarayonida "At tuhfat uz-zakiyati fil lug'otit turkiya" va "Devonu lug'otit turk" asarlaridagi uy ro'zg'or buyumlariga oid so'zlarning o'zaro farqli va o'xshash jihatlarini kuzatdik. Masalan "At tuhfat" ширак-чироқ (276-bet) "Devon" da юна-чироқ(32-bet), кумган-obdasta, qumg'on (412-bet). "At-tuhfat" da такана-tog'ora (252-bet) , "Devon" da текна-tog'ora (408-bet)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, turkiy til juda boy til, undagi so'zliklarning xazinasini boyitish maqsadida tilshunoslarimiz o'z ilmiy tadqiqotlarini chuqurroq o'rganib, tahlil qilib, lug'atchilik an'analarini davom ettirmoqda. Bu lug'atlarning manbalarini ko'paytirishda biz yoshlarning kelgusi avlod uchun buyuk merosimizga oz bo'lsada o'z hissamizni qo'shayotganimiz uchun minnatdormiz

QO'LLANILGAN ADABIYOTLAR

1. ДЛТ 1960, I – Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталибов. 1- том. – Тошкент: Фан, 1960.
2. ДЛТ 1963, II – Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталибов. 2- том. – Тошкент: Фан, 1963.

3. ДЛТ 1963, III – Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов.
4. ДЛТ 1967 – Девону луғотит турк. Индекс-луғат. Ғ. Абдурахмонов ва С. Муталлибовлар иштироки ва таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967.
5. ДЛТ 2005 – Кашгари, М. Дивану лугат ат-тюрк [Текст] / М. Кашгари; пер., предисл. З.- А. М. Ауэзовой. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005.
6. ДЛТ 2010 – Махмуд ал-Кашгари. Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов). В 3-х томах. Т. 1. Пер. с араб. А.Р. Рустамова под ред. И. В. Кормушина [Текст] / Махмуд ал-Кашгари. – М., 2010.
7. ДЛТ 2016 – Кошғарий, Махмуд. Девону-луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. Нашрга тайёрл. Ҳ. Болтабоев, Б. Исабеков. Масъул муҳаррир.: Ҳ. Дадабоев. – Тошкент, MUMTOZ SO‘Z, 2016.
8. ДЛТ 2017 – Кошғарий, Махмуд. Девону-луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони) /